T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021
maxsus son

*DJURAYEV Risbay*
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.
O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta'lim» jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

**Tahrir hay'ati:**

*Sherzod SHERMATOV*
*Uzoqboy BEGIMQULOV*
*Alisher UMAROV*
*Nargiza RAXMANQULOVA*
*Xolboy IBRAGIMOV*
*Shavkat QURBONOV*
*Roxatoy SAFAROVA*
*Islom ZOKIROV*
*Dono G'ANIYEVA*
*Lobar QARAXANOVA*
*Dusmurod DJURAYEV*

**Tahririyat manzili:**

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34
(93)-503-52-07
e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

3 ***S.T.Turg'unov***
Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash
9 ***A.G'.Turg'unboyeva***
O'smirlik davrida xarakter aktsentuatsiyasi va xarakternig shakllanishi
13 ***M.A.Maxsudova***
Turli yosh davrlarida muloqotning rivojlanishi
17 ***Z.B.Kurbanova***
Bolalar ijtimoiylashuvini tashxis qilish uzluksiz ta'lim samaradorligi omili sifatida
21 ***Yo.T.Djumanazarov***
Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning ayrim psixologik aspektlari
25 ***S.Yu.Akbarov***
Kattalarga ta'lim berish samaradorligini oshirish – yangi davr talabi sifatida
28 ***A.A.Xusanov***
Bo'lgusi o'qituvchi-logopedlarni inklyuziv ta'lim muhiti sharoitida pedagogik faoliyatini ilmiy tashkil etish pedagogik muammo sifatida
32 ***D.D.Oribboyeva***
Maktab yoshidagi o'quvchilar ijtimoiy kompetentligining tarkibiy qismlari
36 ***M.B.Badritdinova***
O'smirlarda tafakkur rivojlanishining psixologik xususiyatlari
39 ***Z.O.Rahmatullayeva***
Bolalarda emotsional intellektni shakllantirishning samarali omillari
42 ***D.H.Ergasheva***
O'quv-bilish faoliyati muhitida bola mustaqilligining psixologik xususiyatlari
46 ***D.H.Ergasheva***
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilish faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish omillari
50 ***N.O.G'aniyeva***
O'smirllik davrida ijtimoiy qo'rquv holatlarining namoyon bo'lishi
54 ***N.A.Vaxobova***
Oilada bolani maktab ta'limiga «shaxs» sifatida tayyorlashning ijtimoiy-psixologik omillari
58 ***Г.Р.Мансурова***
Особенности типов темперамента и их влияние на профессиональное самоопределение личности
64 ***Sh.J.To'ychiyeva***
Psixologik mahoratli o'qituvchi – davr talabi
66 ***M.Abdullayeva, N.Abdullayeva***
Oiladagi muloqotning o'ziga xos xususiyatlarining shakllanishi
70 ***M.Abdullayeva, D.Abdullayev***
O'smirlarni sport musobaqalariga tayyorlashning o'ziga xos jihatlari
74 ***Z.B.Kurbanova, M.N.Rustamova***
O'quvchilar kreativ qobiliyatini o'rganishning diagnostik vositalari
78 ***Sh.B.Tursunova***
O'qituvchi kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari
81 ***Sh.B.Tursunova***
O'qituvchi kasbiy kompetentsiyasi rivojlantirishida kreativ muloqot omillari
85 ***A.A.Soliyev, M.Y.Mirvaliyeva***
O'smirlar sotsial statusini shakllantirishiga ta'sir etuvchi omillar
89 ***G.Tulyaganova***
Shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida o'z individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning psixologik xususiyatlari
93 ***O.R.Nabiyeva***
Reproduktiv yoshdagi ayollar ruhiyatida kuzatiladigan o'zgarishlar
98 ***M.N.Rustamova***
Pedagogik faoliyat samaradorligining psixologik omillari
101 ***G.Sh.Tursunova***
Egotsentrizm shaxs xususiyati sifatida
104 ***A.N.Qurbonboyev***
O'zini o'zi faollashtirish psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida
108 ***D.B.Toshpo'latova, N.Maxmudova***
Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari

# O‘SMIRLARDA TAFAKKUR RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

***M.B.BADRITDINOVA,***
*NamDU Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o‘smirlarda tafakkurga xos kognitiv uslubning namoyon bo‘lishi, uning o‘ziga xos jihatlari, va uni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Maqola o‘qituvchilar, kognitiv psixologiya muammosi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.*
***Kalit so‘zlar:*** *kognitiv uslub, tafakkur, jarayon, ta'lim, psixologiya, o‘smirlik, individual xususiyat.*

*В этой статье излагается об учебной индивидуальной деятельности учащихся и выявления когнитивного стиля, отрочество общего интеллекта, мышление, его психологическугo динамику. Статья предназначена для педагогов, специалистов занимающихся проблемами когнитивного метода.*
***Ключевые слова:*** *когнитив стиль, мышление, процесс, психология, обучение, подросток, индивидуальное особенность.*

*This article opens the main point special youth thinking aged of the cognitive style, individual peculiarities of the cognitive style, and also the psychological peculiarities of the cognitive development in the process of educational activity. The article is cwailable to teachers, specialists working on the problem of cognitive method.*
***Key words:*** *cognitive style, thinking, process, education, psychological, youth, individual peculiarity.*

Bugungi islohotlar davri o‘qitishning samarali metodlarini yaratishni, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishni, inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaning yetakchiligini ta'minlashni, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, milliy his-tuyg‘ularini e'tiborga olib, ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishni taqazo qilmoqda.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev uzluksiz ta'lim tizimiga ham milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib, uni quyidagicha ta'riflagan edilar: “Ta'lim O‘zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faolligini baxsh etadi. O‘sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o‘tadi” [1; 15-b.]. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, pedagogik jarayondagi ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish uchun o‘qitish sifatini tubdan yangilash, o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi munosabatini yo‘lga qo‘yish, o‘zaro sog‘lom raqobat muhitini qaror toptirish va yangicha yondashuvlarni amaliyotga joriy etishimiz zarurdir. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o‘quvchilarning

N.A.Menchinskaya maktab oʻquvchilarining aqliy taraqqiyot darajasini aniqlash jarayonida ularning mavjud bilimlarni amaliyotda qoʻllash darajasini hamda mantiqiy fikr yuritish holatini belgilashga harakat qiladi. Muallif bu asnoda oʻzlashtirish sur'atiga, yaqqollik va mavhumlikka, yaqqol va mavhum tafakkurning oʻzaro aloqasiga, analitik-sintetik faoliyat bosqichiga alohida ahamiyat beradi. Uning fikricha, aqliy taraqqiyot oʻz ichiga oʻquvchilarning oʻqishga nisbatan munosabati, oʻqish motivlari, bilishga qiziqish masalalarini qamrab olishi kerak, deb hisoblaydi [4; 74-b.].

E.N.Kabanova-Meller metodi boʻyicha oʻquvchilarning tafakkurining rivojlanishi 3ta mezon (oʻlchov, parametr) bilan aniqlanadi:

1.Ta'lim jarayonida shakllantiriladigan koʻnikma, malaka va aqliy faoliyat usullarida yangi sharoitga koʻchish muammosining mavjudligi (har xil yoʻllari, koʻrinishlari, turlari va hokazo).

2.Oʻquvchilarda tarkib topgan koʻnikma, malaka va aqliy faoliyat usullaridan shaxsning oʻz aqliy faoliyatini oʻzi bevosita idora qilishga, boshqarishga oʻtishi.

3.Tashqi ta'sir natijasida oʻquvchilarning bilishga qiziqishi qay darajada ekanligini aniqlash va boshqalar [6; 89-b.].

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, oʻsmirlik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan boʻlishi qimmatli va obroʻli hisoblanadi. Oʻsmir shaxsidagi va uning bilishga qiziqishidagi oʻzgarishlar oʻzaro bogʻliq boʻladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi oʻsmirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, oʻzining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurni rivojlanishi bilan belgalanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Т.: Ўзбекистон, 2016. –56 б.

2. Oʻzbekiston Respublikasining "Ta'lim toʻgʻrisidagi" Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T. 1997 yil 29 avgust.

3. Gʻoziyev E.Gʻ. Talabalarni umumlashtirish usullariga oʻrgatish va ularning aqliy taraqqiyoti.- T.:Oʻqituvchi, 1983.

4. Baron, M. (1981). Schedule for Interviewing Borderlines. New York: New York State Psychiatric Institute.